


TDIU Samarqand filiali Xotin-qizlar maslahat kengashining 2024 -yil dekabr oyi uchun bajarilgan ishlar hisoboti

1. Tadbir - Joriy yilning 3-dekabr kuni Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali Iqtisodiyot fakulteti xotin-qizlar ishi bo'yicha dekan maslahatchisi dotsent O.Pardayeva va "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrasida xodimlari, "Lider qizlar" klubi a'zolari bilan birgalikda Samarqand shaharda joylashgan "Ishga marhamat" monomarkaziga borishdi. 26 turdagi kasb-hunar o'rgatish markazida bugungi kunda qulay va zamonaviy shart-sharoitlar yaratilganligiga guvoh bo'lishdi. Uchrashuv yakunida filial talaba-qizlari o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi va o'quv markaziga a'zo bo'lishib, o'qish uchun qabul qilinishdi. Endi Lider qizlar nafaqat fan, balki kasb egasi ham bo'lish imkoniyatlarini qo'lgan kiritishdi. Eslatib o'tamiz: "Ishga marhamat" monomarkazi bilan filial Iqtisodiyot fakulteti xotin-qizlar ishi bo'yicha dekan maslahatchisi dotsent Ozoda Pardayeva memorandum imzolagan.



2- Tadbir - TDIU Samarqand filialida 4-dekabr kuni "Milliy liboslar kuni" bo'lib o'tdi. Milliy liboslar kuni – bu an'ana, odatda, ma'lum bir tarixda nishonlanadigan va xalqning madaniyatini, urf-odatlarini va milliy kiyimlarini namoyish etishga bag'ishlangan bayramdir. Bu tadbirlar xalqni o'ziga xos va xususan, an'anaviy liboslarini kiyishga chaqirish bilan birga, milliy merosni saqlash va yosh avlodlarga yetkazish maqsadida o'tkaziladi.



3-Tadbir - TDIU Samarqand filiali yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti tashabbusi hamda Xotin-qizlar qizlar maslahat kengashi hamkorligida mahoratli va ijodkor talaba-qizlar o'rtasida "Qizlarjon" klubining "Karving" yo'nalishida musobaqa tashkil etildi. Musobaqada talaba-qizlar "Karving" san'ati bo'yicha o'z mahoratlarini namoyish etishdi va munosib baholanib, g'olib aniqlandi.



4-Tadbir – 12-dekabr kuni TDIU Samarqand filiali Xotin-qizlar maslahat kengashi "Buxgalteriya hisobi va moliya" fakultetiga "MISS FAKULTET" ko'rik tanlovi bo'lib o'tdi. Ko'rik tanlovda talaba qizlar 4 ta shart bo'yicha bellashishdi va qizlarning mahorati baholanib, g'oliblar aniqlandi.



5-Tadbir - 2024-yilning 13-dekabr kuni Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Samarqand filialida an'anaviy "Miss Fakultet" ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi. Ushbu tadbir Iqtisodiyot fakultetning ijtimoiy va madaniy hayotini yanada boyitish, talabalar orasida do'stona muhit yaratish va ularning ijodiy salohiyatini oshirish maqsadida tashkil etildi. Tanlovda fakultetning turli yo'nalishlaridan 6 nafar talaba ishtirok etdi. Har bir ishtirokchi o'zining tashqi ko'rinishi, sahnadagi ishtiroki, nutqi va ijodiy chiqishlari bilan tanishtirildi. Shuningdek, talabalar o'zlarining badiiy va ijodiy qobiliyatlarini namoyish qilishdi. Ko'rik tanlovda talaba qizlar 4 ta shart bo'yicha bellashishdi va qizlarning mahorati baholanib, g'oliblar aniqlandi.



6-Tadbir: 2024- yilning 19-20 dekabr kunlari TDIU Samarqand filiali Xotin-qizlar maslahat kengashi a'zolari va pedagog o'qituvchilar hamrohligida TTJ va ijarada yashayotgan talaba-qizlar xonadonlarida bo'lib, uzoq viloyatga ketuvchi talaba-qizlar bilan alohida suhbatlar olib borildi. Uchrashuv davomida talaba qizlarga yo'l xavfsizligi, o'z yashash joylariga sog'-salomat yetib olganliklari bo'yicha tegishli mas'ullarga xabar berish va ta'til vaqtida ham odob-axloq, xavfsizlik qoidalariga amal qilishliklari ta'kidlab o'tildi.



7 -Tadbir: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali Xotin qizlar maslahat kengashi hamda yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti bilan hamkorlikda "Qizlarjon" klubining "Biser yasash" bo'yicha to'garagi tashkil etildi. To'garakda ORI-122 guruh talabasi Maxmudova Durdona o'z tajribalarini almasldi. Biser va munchoqlardan sumka, tillaqosh va taqinchoqlar yasash usullaridan tushuncha berildi.



**TDIU SF Xotin-qizlar masalalari bo'yicha
direktor maslahatchisi:**

E.Z. Isaqova